XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 10-oktabr VI-78-91-8-110-K/24 Boysun tumani

Boysun tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qaroriga 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi Qonunining 10-moddasi va Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qaroriga 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogodeziya markazi Surxondaryo hududlararo boʻlinmasining 2024-yil 7-avgustdagi Boysun tumani hokimiga yuborilgan 01-114-sonli xat orqali maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Boysun tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil 8-avgustdagi 03-01/58-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Boysun tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Boysun tumani bilan chegaradosh boʻlgan Sariosiyo, Qumqoʻrgʻon, Bandixon, Sherobod tumanlari va Qashqadaryo viloyati oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq, yoʻl va boshqa tabiiy hamda sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning tasdigʻi xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi

SHUKUROV BOXADIR SHOTURAYEVICH

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2024-yil 10-oktabrdagi
VI-78-91-8-110-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Boysun tumanining chegara
TAVSIFI

Qashqadaryo va Surxondaro viloyatlari, Sariosiyo va Boysun tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, tog‘ tizmasida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 38°34'57,21", sharqiy uzoqlik koordinatalari 67°15'28,13").

A dan B gacha Sariosiyo tumani yerlari bilan 1-5-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy Tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5446 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yidagi 2-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 38°33'33,62", sharqiy uzoqlik 67°18'19,32").

2-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy Tog‘ tizmasi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘na lishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7576 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yidagi 3-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 38°32'6,18", sharqiy uzoqlik 67°22'49,31").

3-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy Tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6835 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yidagi 4-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 38°30'7,81", sharqiy uzoqlik 67°26'14,41").

4-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy Tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3737 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yidagi 5-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 38°28'50,62, sharqiy uzoqlik 67°27'59,24”). B dan D gacha Qumqo‘rg‘on tumani yerlari bilan 5-17-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

5-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasidan to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2594 metr, keyin qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1695 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 728 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 938 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 6-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°27'32,29", sharqiy uzunlik 67°24'32,14").

6-nuqtadan chegara chizig‘i Dehmalik soyining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2570 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3755 metr, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 326 metr, so‘ngra quruq chegara chizig‘i bilan

janubiy-sharqiy yo‘nalishda 206 metr masofani o‘tib, sharqiy yo‘nalishda 269 metr, keyin janubiy yo‘nalishda soyning 327 metr masofani o‘tib 7-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°25'2,42", sharqiy uzunlik 67°27'18,16").

7-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1659 metr masofani o‘tib, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 1237 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°23'51,36", sharqiy uzunlik 67°28'18,33").

8-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 1116 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1745 metr masofada o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3287 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 402 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 1100 metr masofada o‘tib, janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 735 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda yo‘nalishda 1003 metr masofani o‘tib 9-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°21'4,85", sharqiy uzunlik 67°29'28,44").

9-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2072 metr masofada o‘tib, janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 787 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 284 metr masofada o‘tib, qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 345 metr masofada o‘tib, quruq chegara chizig‘i bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 487 metr masofani o‘tib, qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 437 metr, so‘ngra umumiy soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3051 metr masofani o‘tib, shimoliy yo‘nalishda Qo‘rg‘oncha soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 342 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 2157 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°20'4,20", sharqiy uzunlik 67°26'12,96").

10-nuqtadan chegara chizig‘i soydan qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab avval janubiy yo‘nalishda 4451 metr keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3217 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°16'41,01", sharqiy uzunlik 67°27'56,47").

11-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 405 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 400 metr, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 1160 metr masofada soyga o‘tadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi 323 metr, so‘ngra dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 890 metr, keyin qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab janubiy 190 metr masofada o‘tib, sharqiy yo‘nalishda 878 metr masofani o‘tib 12-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°15'46,70", sharqiy uzunlik 67°27'5,61").

12-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy yo‘nalishda 337 metr, keyin qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1314 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 2048 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°14'42,57", sharqiy uzunlik 67°26'50,24").

13-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy yo‘nalishda 1534 metr masofada o‘tadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 284 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy yo‘nalishda 200 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1518 metr masofada o‘tadi va janubiyjanubiy-sharqiy yo‘nalishda 413 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr masofani o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 660 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan sharqiy yo‘nalishda 429 metr mosafada soyga o‘tadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda 388 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 748 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 429 metr masofada soyga o‘tadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan sharqiy yo‘nalishda 1155 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 92 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°13'20,99", sharqiy uzunlik 67°28'56,86").

14-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1575 metr, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 8917 metr, so‘ng umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 564 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°9'39,55", sharqiy uzunlik 67°29'54,38").

15-nuqtadan chegara chizig‘i avval g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 754 metr, keyin janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 539 metr, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 151 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda soyningsuv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 717 metr masofani o‘tib, sharqiy yo‘nalishda 47 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 620 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 16- nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°8'53,84", sharqiy uzunlik 67°29'0,56").

16-nuqtadan chegara chizig‘i soydan tog‘ tizmasiga o‘tadi va tog‘ tizmasi bo‘lab avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1718 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 4070 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°5'55,18", sharqiy uzunlik 67°28'8,02"). D dan E gacha Bandixon tumani yerlari bilan 17-28-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

17-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 741 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 179 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda

204 metr masofada oʻtib, soyga tutashadi va soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan gʻarbiy yoʻnalishda 484 metr, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 136 metr masofada oʻtib, soyga tutashadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 461 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 126 metr, keyin soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 581 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°6'13,72", sharqiy uzunlik 67°26'33,47").

18-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 126 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 792 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 339 metr masofada oʻtib, togʻ tizmasiga tutashadi va togʻ tizmasi boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 274 metr, soʻngra janubiy yoʻnalishda 1215 metr masofada oʻtadi va janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 743 metr masofada oʻtib, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 374 metr masofada oʻtadi va toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-janubiygʻarbiy yoʻnalishda 373 metr masofada soy va Boysun avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, togʻ tizmasi boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°4'34,72", sharqiy uzunlik 67°25'42,33").

19-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy togʻ tizmasi boʻylab janubiy yoʻnalishda 1536 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 3287 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2881 metr masofada soy va Boysun-Qumqoʻrgʻon temir yoʻlini kesib oʻtib, togʻ tizmasi boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°1'51,34", sharqiy uzunlik 67°22'55,47").

20-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 111 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 379 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 659 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4438 metr masofada soyni kesib oʻtib, togʻ tizmasi boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°59'44,80", sharqiy uzunlik 67°20'32,33").

21-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy togʻ tizmasi boʻylab janubiy yoʻnalishda 330 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 128 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 3690 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 93 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasi boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°57'59,03", sharqiy uzunlik 67°19'2,86").

22-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali avval janubiy yoʻnalishda 243 metr masofada oʻtib, togʻ tizmasiga tutashadi va umumiy togʻ tizmasi boʻylab janubiysharqiy yoʻnalishda 532 metr masofada oʻtidi va janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 593 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 129 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy

yo‘nalishda 132 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 738 metr masofada o‘tib, va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1910 metr, keyin janubiyjanubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 283 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°55'56,80", sharqiy uzunlik 67°19'26,17").

23-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7300 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°53'23,55", sharqiy uzunlik 67°15'49,23").

24-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy tog‘ tizmasi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 151 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2971 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°52'18,91", sharqiy uzunlik 67°14'21,82").

25-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 6508 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 534 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 66 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°49'5,61", sharqiy uzunlik 67°12'19,88").

26-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1712metr, keyin janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda2146 masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 27-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 37°47'55,7", sharqiy uzunlik 67°12'8,45").

27-nuqtadan chegara chizig‘i avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 127 metr, keyin suv quvuri bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 38 metr, so‘ngra umumiy tog‘ tizmasi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8967 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 406 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 28-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°47'20,69", sharqiy uzunlik 67°5'55,20"). E dan F gacha Sherobod tumani yerlari bilan 28-49-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

28-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3487 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 29-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 37°47'49,85", sharqiy uzunlik 67°5'3,62").

29-nuqtadan chegara chizig‘i soydan tog‘ tizmasiga o‘tadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiyyo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2026 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasibo‘yidagi 30-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 37°48'16,23", sharqiy uzunlik 67°6'4,58").

30-nuqtadan chegara chizigʻi togʻ tizmasi boʻylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2341 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 31-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 37°48'51,27", sharqiy uzunlik 67°7'21,20").

31-nuqtadan chegara chizigʻi soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan avval umumiy janubiy-sharqiyyoʻnalishda 300 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1269 metr, soʻng togʻ tizmasi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 414 metr, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 419 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasi boʻyidagi 32-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 37°48'49,99", sharqiy uzunlik 67°8'35,23").

32-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali avval shimoliy yoʻnalishda 82 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan umumiy sharqiyshimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1447 metr, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1426 metr masofada oʻtadi va soʻng quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 107 metr, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 104 metr masofada soyga tutashadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 544 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 33-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°49'48,23", sharqiy uzunlik 67°10'5,38").

33-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy shimoliy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 3654 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1635 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyidagi 34-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°51'35,22", sharqiy uzunlik 67°9'38,51").

34-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 156 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 930 metr, soʻng umumiy quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4222 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 134 metr masofani oʻtib 35-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°53'58,29", sharqiy uzunlik 67°10'35,48").

35-nuqtadan chegara chizigʻi soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 41 metr, keyin umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3933 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 36-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°53'56,64", sharqiy uzunlik 67°8'14,13").

36-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 2614 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 777 metr, soʻng dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 180 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 68 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy

yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 333 metr masofani o‘tib, yoʻl bo‘yidagi 37-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°55'2,41", sharqiy uzunlik 67°6'48,02").

37-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 645 metr, keyin umumiy barcha burilishlarni hisobga olgan holda soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan janubiy yoʻnalishda 266 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 4803 metr masofani o‘tib, Sherobod daryosi bo‘yidagi 38-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°53'53,61", sharqiy uzunlik 67°4'7,80").

38-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda Sherobod daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 985 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 74 metr, soʻng shimoliy yo‘nalishda 174 metr masofani o‘tib, daryo koʻprigi bo‘yidagi 39-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°54'22,83", sharqiy uzunlik 67°3'51,77").

39-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 581 metr, keyin M-39 avtomobil yoʻlni kesib oʻtadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 47 metr, soʻng M-39 avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 55 metr masofada oʻtadi va Xatak avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 3439 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 124 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 10348 metr masofani o‘tib, yoʻl bo‘yidagi 40-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°56'48,53", sharqiy uzunlik 66°54'40,47 ").

40-nuqtadan chegara chizig‘i Xatak avtomobil yoʻlidan soyga oʻtadi va umumiy shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6971 metr masofani o‘tib, dala tuproq yoʻli bo‘yidagi 41-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°58'7,54", sharqiy uzunlik 66°50'43,23").

41-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 54 metr masofada oʻtadi va janubiy-gʻarbiy yo‘nalishda 494 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda 148 metr masofada soyga oʻtadi va shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1055 metr, soʻng shimoliy yo‘nalishda 253 metr masofada oʻtadi va quruq chegara chizig‘i orqali gʻarbiy yo‘nalishda 333 metr masofada soyga tutashadi va shimoliy-gʻarbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 273 metr masofani o‘tadi va togʻ tizmasi boʻylab shimoliy-shimoliysharqiy yo‘nalishda 953 metr keyin shimoliy yo‘nalishda 458 metr masofada oʻtadi va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1926 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 687 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 478 metr masofada oʻtadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 453 metr masofani o‘tib, 42-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°0'48,29", sharqiy uzunlik 66°48'56,17").

42-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 800 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2528 metr masofada tog‘ tizmasiga o‘tadi va tizma bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1363 metr masofada o‘tib va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘abiy yo‘nalishda 181 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 605 metr masofada o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 254 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 183 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 439 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 43-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°59'59,45", sharqiy uzunlik 66°45'58,78").

43-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan shimoliy yo‘nalishda 388 metr, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 121 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 358 metr, so‘ngra barcha burilishlarni hisobga olgan holda soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1013 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 331 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 44-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°0'53,62", sharqiy uzunlik 66°46'31,78").

44-nuqtadan chegara chizig‘i soydan to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval g‘arbiy yo‘nalishda 279 metr masofada soyga tutashadi va umumiy soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2639 metr, so‘ng dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 791 metr, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1272 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 45-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°2'29,98", sharqiy uzunlik 66°44'46,84").

45-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 777 metr, keyin quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 580 metr, so‘ng umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1584 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1124 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 188 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 140 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 46-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°3'15,63", sharqiy uzunlik 66°43'13,38").

46-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan avval shimoliy yo‘nalishda 494 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 199 metr, so‘ng umumiy yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2814 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 47-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°3'27,41", sharqiy uzunlik 66°41'26,11").

47-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan soyga oʻtadi va soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3097 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 48-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°2'4,05", sharqiy uzunlik 66°41'29,96").

48-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 3730 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1081 metr masofani oʻtib, Atkaza togʻ tizmasi boʻyidagi 49-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°2'30,36", sharqiy uzunlik 66°38'52,06"). F dan A gacha Qashqadaryo viloyati yerlari bilan 49-1-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

49-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali "Atkaza" togʻ tizmalarining barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 289 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 967 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1367 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 990 metr va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 6950 metr masofani oʻtib, Surxondaryo viloyatining Boysun va Sherobod tumanlarini chegara chiziqlari kesishgan joydagi 50-nuktaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°06'55,62", sharqiy uzunlik 66°42'29,40")

50-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali "Atkaza" togʻ tizmalarining barcha burilishlarini hisobga ogan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2414 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 366 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 238 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishada 3402 metr va janubiysharqiy yoʻnalishda 342 metr masofani oʻtib, chegara chizigʻi burilishida joylashgan 51- nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°08'14,25", sharqiy uzunlik 66°46'14,60")

51-nuqtadan chegara chizigʻi "Tyubere oland" togʻi tizmasi boʻylab barcha burilishilarini hisobga olgan holda avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 603 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1100 metr, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 425 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 939 metr va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2007 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli bilan tutashadi, keyin dala tuproq yoʻlining janub tomonidan shimoliysharqiy yoʻnalishda 848 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli burilishida joylashgan 52- nuqtaga tutashadi. (shimoliy-kenglik 38°10'0,83", sharqiy uzunlik 66°48'59,96")

52-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomonidan avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 4837 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 1886 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishida 1880 metr, soʻng shimoliyshimoliy-sharqiy yoʻnalishda 541 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli burilishida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°14'28,57", sharqiy uzunlik 66°49'21,16").

53-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi "Tashkalima" togʻining qoyalari boʻylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda

2425 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 565 metr masofada M-39 “Toshkent-Termiz” avtomagistral yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°15'41,66",sharqiy uzunlik 66°50'15,45").

54-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 329 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 355 metr masofani o‘tib, yaxshilangan zamin yo‘li bilan tutashadi, so‘ngra yaxshilangan zamin yo‘li va “Toshkent-Termiz” temir yo‘lini kesib o‘tib, quruq soy bilan tutashadi, so‘ng umumiy holda quruq chegara chizig‘i va quruq soyning o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliyshimoliy-sharqiy yo‘nalishda 257 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 915 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 872 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin quruq chegara chizig‘i va dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy yo‘nalishda 642 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°17'05,82",sharqiy uzunlik 66 50'16,19").

55-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy holda dala yo‘lining janub tomonidan hamda quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1539 metr masofani o‘tib, quruq soy bilan tutashadi, quruq soyning barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishda 508 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi va dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 276 metr masofada quruq soy va quruq chegara bilan tutashadi, keyin umumiy holda quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan sharqiy yo‘nalishda 594 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°17'32,60", sharqiy uzunlik 66°51'45,06").

56-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali umumiy holda janubiy yo‘nalishda 628 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 572 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 521 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 971 metr va sharqiy yo‘nalishda 233 metr keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 984 metr masofani o‘tib, chegara burilishida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°17'07,95", sharqiy uzunlik 66°52'47,09").

57-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomonidan, quruq soyning o‘ng tomonidan barcha burilishilarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 867 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3639 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 747 metr, keyin umumiy holda quruq soyning o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1923 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 929 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°19'26,09", sharqiy uzunlik 66°56'24,53").

58-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan xolda avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 191 metr masofada dala

tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan umumiy holda shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 579 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2607 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy 488 metr masofani o‘tib, quruq soy bilan tutashadi, quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan xolda g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 245 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2065 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1090 metr masofani o‘tib, quruq soy burilishida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°20'46,60", sharqiy uzunlik 66°59'01,23").

59-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan umumiy holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2104 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 301 metr, so‘ngra umumiy holda sharqiyshimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3216 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 458 metr va sharqiy yo‘nalishda 373 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 213 metr, so‘ngra umumiy holda sharqiy yo‘nalishda 1006 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 714 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2118 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 553 metr masofadan quruq soyga o‘tadi, keyin quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan sharqiy yo‘nalishda 533 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1173 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°23'03,91",sharqiy uzunlik 67°04' 19,62").

60-nuqtadan chegara quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1222 metr, keyin umumiy holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1633 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 711 metr masofadan so‘ng quruq chegara chizig‘iga o‘tadi, keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2453 metr masofani o‘tib, quruq soy burilishida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°25'12,13", sharqiy uzunlik 67°06'59,32").

61-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Nurkay” tog‘ tizmasining barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2949 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy yo‘nalishda 1489 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 706 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 1091 metr va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 843 metr masofada “Sariqiya” tog‘ining tizmasi bilan tutashadi, keyin “Sariqiya” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda umumiy holda avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3347 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2507 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°31'09,13", sharqiy uzunlik 67°09'26,39").

62-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Sariqiya” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy


yo‘nalishda 3886 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4741 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3457 metr masofani o‘tib, Surxandaryo viloyatining Dehqonobod va Qamashi tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joydagi 1-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 38°34'5

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2024-yil 10-oktabrdagi
VI-78-91-8-110-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati Boysun tumanining tayyorlangan kartografik chizmasi

Surxondaryo viloyati Boysun tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	***Sariosiyo tumani yerlari***
B dan D gacha	***Qumqo'rg'on tumani yerlari***
D dan E gacha	***Bandixon tumani yerlari***
E dan F gacha	***Sherobod tumani yerlari***
F dan A gacha	***Qashqadaryo viloyati yerlari***

Shartli belgilar

1	**Chegaraning burilish nuqtalari**
	Viloyatlar chegarasi
	Tumanlar chegarasi